

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta  
maxsus ta'lim Vazirligi**

**Buxoro davlat universiteti  
San'at kafedrası**

**Musiqiy ta'lim yo'nalishi 4 M gurux talabasi**

***Jo'rayeva Nilufarning***  
***BITIRUV***  
***MALAKAVIY ISHI***

**MAVZU “Umumiy ta'lim maktablarida raqs  
to'garaklarini tashkil etish metodlari”**



**Talaba:**

**Ilmiy rahbar:**

**p,f n. dosent B.X.Madrimov**

## MUNDARIJA

|                                                                                                                   |  |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
| <b>Kirish:.....</b>                                                                                               |  |
| <b>I-BOB: RAQS VA RITMIK HARAKATLARNING<br/>O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</b>                                          |  |
| <b>1.1. Musiqiy ritmik-raqssona harakatlar va uning<br/>ta`lim-tarbiyaviyligi.....</b>                            |  |
| <b>1.2. O`zbek xalq raqs elementlari va uning<br/>mazmuni.....</b>                                                |  |
| <b>1.3. Musiqiy tadbirlarning ommaviy va tugarak shakli...</b>                                                    |  |
| <b>II-BOB: O`QUVCHILARINI MUSIQIY RITM<br/>YORDAMIDA TARBIYALASH G'OYASI<br/>VA MAZMUNI</b>                       |  |
| <b>2.1. Musiqaviy retmik-raqssona harakatlar bajarish va<br/>uning tarbiyaviy ahamiyati.....</b>                  |  |
| <b>2.2. Ta`lim samaradorligini ta`minlashda musiqa<br/>rahbarining o`rni.....</b>                                 |  |
| <b>2.3. Raqs o'rgatishda musiqa asboblardan foydalanish<br/>va asosiy ritmik harakatlar bajarish yullari.....</b> |  |
| <b>Xulosava tavsiyalar.....</b>                                                                                   |  |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati .....</b>                                                                   |  |

## **KIRISH**

“Fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlarining jamiyat va davlat qurilishi tizimidagi huquq hamda vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish masalasi ustuvor yo`nalishga aylanishi zarur”.

**I. A. Karimov**

**Mavzuning dolzarbligi.** O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" nomli kitobida ma'naviyatning inson va jamiyat hayotidagi o`rni va ahamiyati, bugungi globallashuv davrida ma'naviyat sohasidagi vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g`oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan<sup>2</sup>.

O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risida»gi Qonunida ta'lim bilan tarbiyani birgalikda olib borish masalasi asosiy vazifa qilib belgilangan. Bugungi kunning talabi

---

1. I. A. Karimov. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma`ruza. 2010 yil 27 yanvar.

Respublikada ta'lim tizimini takomillashtirish, Vatanga munosib farzandlar, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasidir. O'zbek xalqi ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega bo'lib, avvalo insonparvarlik, kamtarinlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, do'stlik, birodarlik, poklik, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab kelgan hozirda ma'naviy tarbiyani yoshlarda shakllantirish dolzarb vazifadir.

Ushbu "Umumiy ta'lim maktablarida raqs to'garaklarini tashkil etish metodlari" mavzudagi bitiruv malakaviy ishimizning "Kirish" qismida tanlangan mavzuning muhim dolzarbligi, maqsadi va vazifasi, tadqiqot ob'ekti va metodlari, uning nazariy, amaliy metodlari va ilmiyligi haqida yoritilgan.

Ishning birinchi bobi "Raqs va ritmik harakatlarning o'ziga xos xususiyatlari" deb nomladi. Unda "Musiqiy ritmik-raqssona harakatlar va uning ta'lim-tarbiyaviyligi", "O'zbek xalq raqs elementlari va uning mazmuni", "Musiqiy tadbirlarning ommaviy va tugarak shakli" haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

Ishning ikkinchi bobi "O'quvchilarini musiqiy ritm yordamida tarbiyalash g'oyasi va mazmuni" deb nomlangan. Bunda "Musiqaviy ritmik-raqssona harakatlar bajarish va uning tarbiyaviy ahamiyati", "Ta'lim samaradorligini

ta'minlashda musiqa rahbarining o'рни", "Raqs o'rgatishda musiqa asboblardan foydalanish va asosiy ritmik harakatlar bajarish yullari" kabi mavzular haqida yoritib berilgan.

**Bitiruv ishning maqsadi:** Musiqa mashg'ulotlarini olib borish jarayonida qilinishi lozim bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlar musiqa rahbarining bosh maqsadi ekanligi his qilgan holda bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakillantirish. Barcha tadbirlarda musiqa o'qituvchisi faol bo'lishi zarur.

- O'qituvchilarda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishini oshirish.
- Musiqa darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.
- Badiiy-musiqiy ongini shakillantirish.
- Musiqiy faoliyat turlari asosida dars va musiqiy mashg'ulot jarayonini rivojlantirish.

**Bitiruv ishning vazifalari:** Ushbu, maqsad va vazifalarni amalga oshirishda, musiqa o'qituvchisining professional darajasi hamda ahloqiy qiyofasiga bog'liq. Chunki har bir musiqa o'qituvchisi darsdan tashqari badiiy-musiqiy tadbirlarning asosiy tadqiqodchisi hisoblanadi.

- Musiqiy pedagogik ta'limini shakillantirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

- Raqs haqida bilim va malakalar doirasini tarkib toptirish.
- Musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy ijodkorlik his-tuyg'ularini rivojlantirish.
- Milliy musiqa asboblariida ijro etish va musiqiy uslublari bilan tanishtirish.
- Muammoli fikirlashni raqs orqali tasvirlashni shakillantirish.
- Musiqiy axborat. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqssona harakatlar faolligini oshirish.
- Raqssona harakatlar asosida bayram dasturlarini ishlab chiqish va olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash.

**Bitiruv ishining ob'ekti:** Men 8-umumiy o'rta ta'lim maktabida "Pedagogik amaliyotda" bo'lib, maktab o'quvchilariga dars berish bilan bir qatorda "Raqs" hamda "Bolalar fol'klori" yo'nalishi bo'yicha badiiy-musiqiy mashg'ulotlarini olib bordim. O'quvchilarning musiqiy faolligini oshirishda men barcha musiqiy faoliyat turlari va musiqiy asarlardan unumli foydalandim.

**Tadqiqot metodlari:** Men, 8-umumiy o'rta ta'lim maktabida "Pedagogik amaliyotda" bo'lib institutda olgan bilimlarimni tajribada sinab ko'rish maqsadida o'quvchilarga

raqs san'atini yakka tartibda va guruhlarga bo'lib mashg'ulotlar olib bordim. Maktab musiqa o'qituvchisi hamda amaliyotchi talabalar bilan hamkorlikda "Onam aytgan allalar" nomli ko'rik tanloviga o'quvchilarni tayyorlab, shahar hamda viloyat bosqichlari ko'rik tanlovida qatnashdik. Ba faxrli o'rinlarni oldik. Musiqa tarbiyasi-nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, o'quvchilarda musiqa madaniyatiga bo'lgan qiziqishi va mehr muhabbatini oshiradi.

**Tadqiqotning nazariy ahamiyati:** Umumiy musiqiy ta'lim jarayonida, o'sib kelayotgan avlodni musiqiy estetik va ma'naviy madaniyatni shakllantirishda bolalar va o'smirlar musiqasining rolini yoritib berish. Musiqa darslari boshqa darslardan o'zining badiiyligi, qiziqarliligi bilan ijodiy zavq bag'ishlovchi, emosional to'yg'u, obraz va kechinmalar o'yg'ota olishi bilan farqlanadi.

Musiqa o'qituvchisi ta'lim tamoyillaridan xabardor bo'lgandagina to'g'arak ishlarini samarali boshqarish, o'qitishning usullarini tug'ri tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham o'qitish tamoyillari ta'lim jarayonining eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi. Sunday ekan, ta'lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda o'quvchi-

talabalarga mustahkam musiqiy bilim berish, ularni erkin, mustaqil fikrlay oladigan insonlar qilib tarbiyalashda, musiqa ta'limi-tarbiyasi va san'atini, ta'lim tamoyillarining mohiyatini chuqur anglash va hayotga tadbiq etish muhim muammolardan biridir.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati:** Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari nigizida musiqiy ritmik-raqssona harakatlardan foydalanish, musiqiy tadbirlarni faol boshqarish, musiqiy qonuniyatlarni nazariy, amaliy jihatdan o'zviy bog'lash va fandan olgan bilimlarini hayotga tadbiq etishdan iborat. Bitiruv malakaviy ishida ma'naviy go'zallik, milliy raqs san'ati va boyliklardan bahramand etish maqsadida yozilgan. Raqssona harakat ko'rinishlari va ijrochilik mahorati haqida ta'rif berilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:** Raqs san'ati tana sog'ligi uchun foydalidir. Raqs insonning musiqiy estetik didini, ongini, ijodiy faollik, insonga xos mehr-muhabbat xislatlarni harakatlar orqali tariflab berish bilan bir qatorda go'zallik-nafosat olamiga olib kiradi. Ushbu BMIda musiqa rahbari va qatnashchi tomonidan bajariladigan barcha ta'lim asoslari, mashg'ulot mazmuni, metodlari, raqs holatlarining bajarilishidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlari haqida yoritilgan.

# **I-BOB: RAQS VA RITMIK HARAKATLARNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

## **1.1. Musiqiy ritmik-raqssona harakatlar va uning ta`lim-tarbiyaviyligi.**

Respublikamizda yosh avlodni ona-Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi nafosat tarbiyasi masalalarini muvafaqiyatli hal qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Dil mahrami bo`lmish musiqa tarbiyasi o`quvchilarni atrofdagi go`zal narsalarni to`g`ri idrok etish, qadrlash va yuksak did bilan qurollantirishda yetakchi omil hisoblanadi. Shu jumladan, “Ritmika”, “Raqs” san’atini o`rganishda musiqiy asarlarning badiiy g`oyaviy vositasi orqali o`quvchi-talabalarni ahloqiy-estetik va jismoniy tarbiyalaydi. Kasb-hunar va mehnatga ishtiyoq o`yg`otadi.

Ta`lim olish jarayonida olgan bilimlarini chuqurashtirish va ilmiy izlanishlarni davom ettirish uchun mustahkam zamin yaratadi. Shuni ham ta`kitlash joizki, har qanday san’atkor ham musiqa darslarini olib boraolmaydi. “Ritmika”, “Raqs” san’ati fani orqali musiqa o`qituvchisi nazariy, amaliy mashg`ulotlarda o`zining bilim, ko`nikma va malakalarini takomillashtirib borishi, ritmik-raqssona harakatlar bajarishi, o`z kasbiga va bolalarga mehr qo`ygan, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo`lgan shaxs bo`lmog`i lozim.

“Ritmika” fani pedagogika kollejlarida musiqiy ta’lim predmeti sifatida o`qitiladi. Ritmika bu musiqa bilan harakat bajarish demakdir. 20-asrning boshlarida Shvedsiyalik pedagog Djor Dogroz 1-bo'lib ritmik ta'lim ixtiro qildi. "Ritmika bolalarning sulhini o`stiradi, ularni tez chaqqon harakat qilishga o'rgatadi"- degan edi E.N Vodovozov.

20-asrning boshlaridagi pedagog Djor Dogroz tomonidan ritmika ta'limida ilk yoshlik chog'idan boshlab ritmik harakatlar o'rgatishi kerakligini ta'kidlagan. Keyinchalik uning bu ta'limi bizgacha etib kelgan. Bizning Mamlakatimizda ritmik ta'lim asoschilari greener, Kanarov, gumer Aleksandrov va boshqalar. Ritmik harakatlar bajarilganda tanada qon aylanishi yaxshilanadi, muskullar mustahkamlanadi, qomat to'g'ri usishiga yordam beradi.

Ritmik harakatlar bajarilganda tanada qon aylanishi yaxshilanadi, muskullar mustahkamlanadi qomat to'g'ri o`sidi. Ritmik mashg`ulotlar yosh avlodni tarbiyalashda ham ma’naviy, ham jismoniy jihatdan sog`lom bo`lib o`sishiga yordam beradi. Ritmika fanning nazariy negizi, maqsadi, tarkibi, uslubiyati va zamonaviy ko'rinishga egaligi qisqacha bayon etiladi. Teatr va o'quv yurtlarida o'tiladigan ritmika darsining asosiy vazifasi-bo'lg'usi aktyor va o`qituvchilarda me'yor tuyg'usini tarbiyalash va aktyorlik mahoratini

tushuntirishdan iboratdir. Ritmika fani pedagogika kollejlarda musiqiy ta'lim predmeti sifatida o'qitiladi. Fanning maqsadi, umumiy o'rta ta'lim tizimida maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy ritmik-raqssona harakatlardan foydalanish, musiqiy tadbirlarni faol boshqarish, musiqiy qonuniyatlarni nazariy, amaliy jihatdan o'zviy bog'lash va fandan olgan bilimlarini hayotga tatbiq etishdan iborat.

Ritmika-juda yosh soha. Ritm yordamida va ritm yo'lida tarbiyalash g'oyasi XX asrga xosdir. Aktyorni shu yo'l bilan tarbiyalash aynan o'tgan asrda, sobiq sho'ro teatr maktabida ishlab chiqildi va qo'llana boshlandi.

Mazkur soha jamoaviy tajriba bo'lib, moskvalik ritmika pedagoglari N.G. Aleksandrova, V.A.Griner, N.P.Zbruyeva, I.V.Chayanovalar hamda mazkur kitob muallifining deyarli yigirma yillik izlanishlari natijasida yaratildi. Bu uslubiyatni rivojlantirish va mukammallashtirish ustidagi ishlar hanuz davom etayotir. Teatr o'quv yurtlarida o'tiladigan ritmika darsining asosiy vazifasi-bo'lg'usi aktyorlarda me'yor tuyg'usini tarbiyalash va aktyorlik mahoratini tushuntirishdan iboratdir. Shu o'rinda ritm xususida to'xtalib o'tish lozim. Hayotning jamiki ko'rinishida mavjud bo'lgan, tartibga solingan harakat sifatida ritm tabiatda kechadigan barcha jarayonlarda uyg'undir.

Musiqiy ritm tovushlarning vaqt oralig'idagi o'zaro bog'lanishlaridan tashqari qandaydir o'ziga xos, musiqa tabiatiga monand, musiqiy fikrni ifodalovchi ichki bir holatga ham egadir. Harakat musiqiy me'yorning ana shu o'ziga xosligini aks ettirayotib, o'z ichki mohiyatiga, sayqaliga ega bo'ladi va bir vaqtning o'zida erkinligicha qoladi. Bu narsa, deylik, nutq jarayonida balki sodir bo'lmasdi: harakatlarning mohiyati nutqiy matn tomonidan oldindan belgilab qo'yilardi.

Musiqiy me'yor esa zarbali me'yorga nisbatan ham juda katta ustunlikka ega zarbli me'yordan foydalanish, alohida va kam ucliraydigan zarbalardan tashkil topgan holatlarni mexanik ifodalashga olib kelar, harakatlarni his-hayajonga boyitish imkonidan mahrum etardi.

Shuning uchun ham aynan musiqiy me'yor cheksiz xilma-xilliklari bilan qiziqish uyg'otadi va me'yor tuyg'usini tarbiyalash maqsadida keng qo'llaniladi. Harakat ritmga oid mashg'ulotlarda juda xilma-xil bo'lib, jismoniy tarbiya, raqs kabi ko'rinishlarda ko'proq ko'zga tashlanadi. Aktyor esa o'zining barcha harakatlarida ritmga monand holatda bo'lishi lozim. U sahnada obraz yaratish jarayonida raqs tushishi, sakrash, akrobatika unsurlarini ham ijro etishi kerak. Undan asosiy e'tiborni harakatlarning me'yoriga, ya'ni, harakat unsurlarini mavjud makon va zamonda taqsimlanishiga,

mushaklar taranglashuvini bosh-qarishiga qaratish barobarida, harakatlar ijrosining texnikasini ham unutmasligi talab qilinadi. Ritmga oid mashg'ulotlar aktyor uchun zarur bo'lgan malakalarni yaratishga qaratilgan. Mashg'ulotlar qo'yilgan. Yuqorida qayd etilganidek, musiqiy asarning sur'atini belgilashda, musiqa xarakteri va uning hayajonli ohanglari uyg'otgan tasavur ahamiyatlidir. Biz ba'zan musiqa tinglayotib, sho'x, quvnoq, mayin yoki past ohangdagi musiqa ekan, deymiz. Holbuki, musiqa «tez va quvnoq», «tez va jo'shqin» yoki «tez va xavotirli» bo'lishi mumkin.

Binobarin, sur'at hali musiqa xarak-terini belgilashda hal etuvchi belgi degani emas: musiqiy ma'no musiqiy harakatning o'zida kompozitorning qaysidir fikri, tuyg'ulari kechimi va rivoji ifodalangan bo'lishi mumkin. Shunga qarab, bir xil tezlikdagi musiqa ham butkul xilma-xil bo'lishi mumkin. Tezkor va g'amgin, tantanavor va kulgili, xotirjam va shodmon, tetik va mungli musiqa ma'lum bir tarzda bizning holatimizga tus berib, so'zsiz kechinmalarimizga ta'sirini o'tkazadi. Musiqa asosiga qurilgan harakatlar ustida ishlayotib, biz musi-qaning hayajoni, harakatga o'tishini va harakat ifodali chiqishiga turtki bo'lishini sezamiz.

Raqs musiqasi raqs harakatlarning xarakteri bilan chambarchas bog'liqdir. Valsning mayinligi, tangoning

tuyg'uga boyligi, polkaning quvnoq, uchqur sur'ati va xalqona xiromlarning sho'xligi o'sha raqslar harakatlarida butunlay o'z aksini topgan. Musiqiy tilning ma'nodorligi, harakat ifodasini xilma-xil qilish va hayajonli tus oldirish uchun boy material hisoblanadi. Harakatlarning xilma-xilligi va bir-biridan farq qilishi musiqa parchalar to'g'ri va did bilan tanlanganda yaqqol ko'rinadi. Mazkur xarakterdagi o'z xarakatini oqlash, uning uchun ifodali va omadli holatni topish tasawurni va topqirlikni rivojlantiradi.

“Ritmika” fanini o`rganish va o`zlashtirish jarayonida amaliy faoliyatga, ularni tarixiy–nazariy va musiqiy pedagogik tahlil qilish, musiqiy retmik harakatlar bajarish, bolalar va o`smirlarni auditoriyasi ya`ni musiqiy mashg`ulot xonalariga taqdim etish metodikasiga o`rgatishdan iborat. Musiqa va harakat ritmik mashg'ulotlarning asosiy vositasini tashkil etadi. Turli yo'nalishlardagi mavzularni ritmik harakatlarda aks ettirish-bu harakatning asosiy uslubini hamda me'yor tuyg'usini rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi yagona yo'ldir. Shu bois, hozirgi zamon musiqa rahbari pedagogik muloqot ustasi bo`lishi, har qanday vaziyatda ham pedagogik ta`sir usullaridan unumli foydalangan holda, ta`lim tarbiya va ma`naviy–ma`rifiy ishlarini boshqarishda faol tashkilotchi, izlanuvchan ijodkor bo`lishi lozim.

## 1.2. O'ZBEK XALQ RAQS ELEMENTLARI VA UNING MAZMUNI.

Musika fanini milliy musiqiy va ma'naviy meroslarimizni yosh avlod ongiga singdirishda amalga oshirilgan muhim qadamdir. Pedagogika oliy o'quv yurtlari musika bo'limi o'qituvchi, talabalari, kollej, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchi va o'quvchilari uchun nazariy va amaliy mashg'ulotlarida musiqiy asarlar o'rganish, ritmik, raqssona harakatli o'yinlar va uning turlari, darslarni musiqiy tahlil qilish yo'llari, ta'lim tarbiya sohada qilinajak ishlar bilan tanishtirib borish bilan bir qatorda musiqiy mahoratni shakllantirishga yordam beradi.

Musika darslarini olib borish jarayonida ko'p asrlik musiqiy me'rosimizga va milliy madaniy qadriyatlarimizga alohida e'tibor berildi. Bu esa, xalqimizning ajoyib, bir-biridan go'zal an'analarini, mumtoz musiqaning yuksak durdonalaridan ma'naviy zavq olish, ruhiy bahramand bo'lish, o'zbek musika madaniyati va san'atini rivojlantirish, ularni to'laligicha yosh avlodga etkazishni taqoza etadi.

Shaxs kamolotini shakllantirishda sog'lom barkamol avlodni tarbiyalash musika o'qituvchilarining asosiy maqsad va vazifalaridan biri ekanligi, pedagogika kolleji hayotida musika o'qituvchisining oldiga qo'yilgan zamonaviy talablar,

musiqa ta'limi samaradorligini ta'minlashda musiqa o'qituvchisining faoliyat miqyosi haqida bayon etilgan.

Musiqa san'ati alohida soha sifatida bolalar va o'smirlar uchun o'ziga xosliklari haqida tasavvur hosil qilish. Maxsus va umumiy musiqiy ta'lim jarayonida, o'sib kelayotgan avlodni musiqiy estetik va ma'naviy madaniyatni shakllantirishda musiqaning o'rnini kattadir.

Ritmika fanining ahamiyati shundaki, inson hayotiga sog'lom muhitni olib kiradi. Ritmik mashg'ulotlar, raqssona harakatli o'yinlar bolalarning jismoniy jihatdan o'nib o'sishlariga salomatliklari yaxshilanishiga, chiniqishlariga organizmi va umumiy ish qobiliyatlarining yanada mustahkamlanishiga yordam beradi.

Raqssona harakatli o'yinlarning barcha turlari ko'zga yaqqol tashlanadi. To'g'ri tashkil etilgan raqslar intizomni, sezgiriikni, chaqqonlikni, tezkorlikni, chidanililikni rivojlantiradi. Ommaviy ya'ni jamoa bo'lib raqsga tushish do'stlik va o'rtoqlikni tarbiyalashga yordam beradi.

Musiqa rahbari, o'qituvchi raqsni samimiy, xotirjam va odob bilan, o'zaro o'rtoqlik munosabatini saqlagan holda boshqarshi, uni uddalay olmagan bolalarga ham yaxshi munosabatda bo'lib, hatto o'yinchiga tanbeh berish o'rniga u biroz harakat qilsa, uddalay olishi mumkinligi aytiladi.

Bolalarni mashgʻulot jarayonida ruhlantirish, unga ishonch hosil qilish, harakatlarni bajarganda har tomonlama chiniqtirish maqsadga muvofiq ekanligi haqida tushuncha va bilimga ega boʻlishi zarur.

Ritmikaning nazariy negizi, maqsadi, tarkibi, uslubiyati va zamonaviy ko'rinishga egaligi qisqacha bayon etiladi. Bunda fanning maqsad va vazifalari, asosiy tushuncha va tamoyillarini standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish quyidagi me'yoriy hujjatlarni va toifalarini aniqlab beradi.

- Davlat ta'lim standartlari asosida musiqa ta'limi-tarbiyasini yanada shakllantirish.
- “Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlari asosida musiqiy tadbir dasturlarini ishlab chiqish.
- Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini standartlashtirish ishlarni tashkil qilish.
- Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi standartlari talablarining bajarlishini nazorat qilishi va barcha tadbirlarni reja asosida bajarishni belgilaydi.

Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda quyidagi qonunlar va me'yoriy hujjatlar asos qilib olingan.

“Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz

ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va amalda joriy etish to'g'risida" Qonuni va hokozalar.




Mavzuning maqsadi, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari, umumiy o'rta ta'lim tizimida maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy ritmik-raqssona harakatlardan foydalanish, musiqiy tadbirlarni faol boshqarish, musiqiy qonuniyatlarni nazariy, amaliy jihatdan o'zviy bog'lash va fandan olgan bilimlarini hayotga tatbiq etishdan iborat. Umumiy musiqiy ta'lim jarayonida, o'sib kelayotgan avlodni musiqiy estetik va ma'naviy madaniyatni shakllantirishda bolalar va o'smirlar musiqasining rolini yoritib berish.

**Raqs**-keng ommalashgan, nafis harakatlar va ma'lum bir ritmik tuzilishlar bilan badiiy obraz yaratishga asoslangan san'at turidir. Raqsdagi bu ritmik va plastik harakatlar musiqa bilan chambarchas bog'liq holatda davom etadi. Raqs musiqasi aniq o'lchovga ega, raqsga jo'r bo'lish mo'ljallangan, aniq ritmga, harakterga munosib kuydir. Har bir musiqaning harakteri, ritmi turlicha bo'ladi. Raqs musiqasining ko'pchiligi cholg'u tarzida bo'ladi.



Xalq raqlari ashula bilan ijro etiladi. Raqs musiqasi doira, urma sozlar, yoki qarsak chalib turib ham bajarilishi mumkin. Bundan tashqari karnay-surnay, nog'ora, doira, yallalarning raqsga moslari bor. Yirik musiqa asarlarining ayrim qismlari ham raqsga monand bo'lishi mumkin. Bu syuita, siklli syuita shaklining ayrim qismlaridir.

**Raqs**-musiqa tovush tovlanishlari orqali fikr va tuyg'ularni aks ettiradi, hayot bosqichlarida insoniyatni to'lqinlantirib kelgan axloqiy muammolarni bayon qiladi. Bunda musiqaning va raqs san'atining falsafiy moh'iyati ham namoyon bo'ladi. Ajoyib musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug'orilgan bo'ladi. Musiqada hayot va o'lim, shaxs va jamiyat, ezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks ettiriladi.



Musiqa va raqs hayotning barcha tamonlarini aks ettira oladi. Bir vaqtning o'zida ham epik, ham lirik, ham dramatik, ohanglarda jaranglayveradi, uning ifodali tabiatiga ko'ra, ko'proq lirikaga moyil, lirika esa musiqaning nafosat asosini tashkil etadi. Bularning barchasini raqs san'ati ham o'z ichiga oladi. Nozik raqssona harakatlar orqali ularni tomoshabinlarga yetkazib beradi.

Qadimdan odamlar tabiat va hayvonot dunyosini ularga qanday ta'sir etishini, shuningdek, ovchilik, dehqonchilik chorvachilik faoliyatlarini o'yin obrazli harakatlar, imo- ishoralar orqali so'zsiz tasvirlashi natijasida raqs san'ati vujudga kelgan. Marosim va bayramlarda raqs zo'r qiziqish bilan tomosha qilingan. Har bir millatning o'z milliy raqsi mavjud:



1. Jonon.




2. Val's



3. Uyg'urcha raqs.



O'zbek xalqida, raqs san'ati, ashula va raqs bilan chambarchas bog'lanib ketgan va shu an'ana hozirgacha davom etmoqda.



Xalq raqs san'ati voqiylikni harakatlar orqali tasvir etadigan ijod turidir. Xalq ijodining durdonalari mehnatkash ommaning qobiliyatli tomonidan ijod etiladi og'izdan—og'izga ko'chib boshqalar ham bu asarni ijro qiladilar, uning boyib borishiga o'z hissalarini qo'shadilar, takomillash-tiradilar, boshqa variantlarni yaratadilar. Shunday qilib xalq ijodining yaxshi namunalari—o'lmas an'anaga aylanadi.

**Raqs**-san'atining bir turidir. U o'z ohangi bilan sho'xchan va jozibador bo'ladi. Raqs kuyini tinglagan odam behosdan harakatga tushadi. Chunki kuy tinglovchilarni raqsga chorlaydi. Har bir xalqning o'zi sevgan raqs kuylari bor. Bizda “Andijon polkasi”, “Lazgi” kabi kuylari ayniqsa mashhur.

“Andijon polkasi” o'zbek xalq raqs kuyini tinglaymiz va sho'x holatda raqsga tushamiz



## **II-BOB: O`QUVCHILARINI MUSIQIY RITM YORDAMIDA TARBIYALASH G'OYASI VA MAZMUNI**

### **2.1. Musiqaviy retmik, raqssona harakatlar va uning tarbiyaviy ahamiyati**

O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng, milliy-ma`naviy qadriyatlarimiz qatorida ko`p asrlik musiqiy merosimizga ham alohida e`tibor berila boshlandi. Endilikda xalqimizning ajoyib xilma-xil va bir- biridan go`zal mahalliy musiqiy an`analaridan, mumtoz musiqaning yuksak durdonalaridan, maqom san`ati hamda uning raqssona harakatlarni o`qitilish va undan ma`naviy zavq olish, ruhiy bahramand bo`lish imkoniga ega bo`ldilar.

O`zbek musiqa madaniyati, urf-odat va an`analari uzoq davrlar mabaynida shakllangan bo`lib ular xalqimizning turli sharoitlaridagi turmush tarzi, mehnat mashg`ulotlari va bayramlari kabi jarayonlar bilan bog`liqdir. Shu bois, barcha o`quv fanlari qatorida musiqiy ta`limda ham davlat ta`lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to`laqonli foydalanish imkoniyatini beradi.

O`quvchilarda retmika va raqssona harakatlarining musiqiy emotsional ongli tushinishini shakllantirishga oid ko`nikmalar ustida ishlash, musiqiy ta`lim yo`nalishi o`quvchi-talabalarini musiqa madaniyati o`qituvchisi amaliy faoliyatiga tayyorlash. Harakatlarning mohiyati nutqiy matn

tomonidan oldindan belgilab qo'yilardi. Shuning uchun ham aynan musiqiy me'yor cheksiz xilma-xilliklari bilan qiziqish uyg'otadi va me'yor tuyg'usini tarbiyalash maqsadida keng qo'llaniladi.

Musiqiy me'yor zarbali me'yorga nisbatan juda katta ustunlikka ega. Zarbli me'yordan foydalanish, alohida va kam ucliraydigan zarbalardan tashkil topgan holatlarni mexanik ifodalashga olib kelar, harakatlarni his-hayajonga boyitish imkonidan mahrum etardi. Kallej hamda maktablarda musiqaviy retmika va raqssona harakatlar kabi sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlarini olib borish izchilligini oshirish maqsadga muvofiqdir. Masalan:

- Maktab va kasb-hunar kallejlarida retmika va raqssona harakatlar o'rgatish va o'qitishda ketma-ketlik, oddiydan murakkabga borish.
- O'quvchi-talabalarning ta'lim olish jarayonini bir me'yorda bo'lishiga erishish.
- O'quvchi-talabalarni mustaqil ish olib borish jarayonini tartibga tushurish.
- Retmika va raqssona harakatlarni mohirona idrok etishga o'rgatish.
- Musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy ijodkorlik va his-tuyg'ularini rivojlantirish.

- Musiqiy asarlarning badiiyligi, g`oyaviy mazmuni vositasida o`quvchi-talabalarni ahloqiy estetik tarbiyalash, retmika va raqssona harakatlar bajarish.
- Musiqa darslari hamda musiqa mashg`ulotlarida kasb-hunar va mehnatga nisbatan ishtiyoq o`yg`otish va boshqalar.

Musiqa qadim-qadimdan ajdodlarimiz mehnat jarayonida kasbining turli jihatlarini tarannum etuvchi qo`shiq hirgoyi qilishganlar va raqslarga tushganlar. Bu esa, mehnat qo`shiq va raqslarining mustaqil janr sifatida shakllanishi va uzoq davrlar mobaynida yashab, avloddan-avlodga, og`izdan-og`izga o`tib ommalashuviga sabab bo`lishi bilan bir qatorda musiqiy tarbiyaning ham keng quloq yoyishiga, rivojlashiga, shakllanishiga zamin hozirlagan.

Ajdodlarimiz asrlar davomida musiqaning qudratiga tahsinlar o`qiganlar. Ular o`z munosabatlarida, mehnat faoliyatlarida, hayotda undan bahramand bo`lganlar, ezgu niyatlarini amalga oshirganlar. Ayniqsa, kattalar hamisha o`z farzandlarini uylab yashaganlar, mehnat va ijod bilan shug`ullanganlar. Bu jarayon ularda bola va uning takdiri to`g`risida kayg`urish majburiyatining tabora chuqurlashuvi tarzida kechib, talay qo`shiqlar hamda raqssona harakatlarning to`qilishiga sabab bo`lgan.

Musiqqa rahbarining yangi qirralarini ochib beruvchi, ham muallim, ham rejessyor, ham artist, ham yangi asar muallifi bo`lmog`i kerak. Har bir musiqqa o`qituvchisi o`z kasbini chin dildan sevib, barcha tadbirlarda faol bo`lishi, ushbu badiiy-musiqiy tadbirlarga o`quvchi-talabalarni jalb etishi barcha fanlarni samarali o`zlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari musiqqa rahbari yangi pedagogik texnologiya asosida darslarni olib borishi, o`quv muassasalarida sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishi kabi tadbirlar vositasida yosh avlodni axloqiy tarbiyasini shakllantirish masalasiga yaqindan yordam beradi.

Ritmika-juda yosh soha. "Ritmika" fanini o`rganish va o`zlashtirish jarayonida amaliy faoliyatga, ularni tarixiy-nazariy va musiqiy pedagogik tahlil qilish, musiqiy retmik harakatlar bajarish, bolalar va o`smirlarni auditoriyasi ya'ni musiqiy mashg`ulot xonalariga taqdim etish metodikasiga o`rgatishdan iborat. Ritm yordamida va ritm yo'lida tarbiyalash g'oyasi XX asrga xosdir. Aktyorni shu yo'l bilan tarbiyalash aynan o'tgan asrda, sobiq sho'ro teatr maktabida ishlab chiqildi va qo'llana boshlandi. Mazkur soha jamoaviy tajriba bo'lib, musiqiy ritm tovushlarning vaqt oralig'idagi o'zaro bog'lanishlaridan tashqari qandaydir o'ziga xos, musiqqa tabiatiga monand, musiqiy fikrni ifodalovchi ichki bir holatga

ham egadir. Musiqa san'atining alohida soha sifatida o'ziga xosliklari haqida tasavvur hosil qilish. Notalarni sanash va retmik harakatlar bajarishga doir "Doira sadosi" nomli musiqiy o'yin.

**Maqsad.** Bolalarni urib chalinadigan milliy cholg'u asbobi bilan tanishtirishni mustahkamlash. Doira usulida harakat qilishga, qo'shiq aytishga o'rgatish.

**Fonda:** Musiqa jo'rligisiz bolalar xonaga kirib keladilar.

**Musiqa rahbari:** Bolalar, bugungi mashg'ulotimiz har safargidan sal boshqacharoq bo'ladi. Bu mashg'ulotimiz doira jo'rligida o'tadi.

**Musiqa rahbari:** Musiqa rahbarining qo'lida doira, «bum-bak» usulini chaladi. Bolalar ritmik qadam tashlab yuradi.

**Musiqa rahbari:** «baka-bak» usulini chaladi, bolalar qo'llarini belga qo'yib, oyoq uchida engil yugurishadi. Hamma bolalar doira bo'lib, ichkariga qarab turishadi.

**Musiqa rahbari** «baka-bum» usulini chaladi. Bolalar o'zbek xalqi raqs elementini «Koptokni yuqoriga ot» harakatini bajaradilar. Musiqa rahbari bolalarga o'z joylarini egallashlarini so'raydi.

**Musiqa rahbari:** Biz hozir gram yozuvida doira usullarini tinglaymiz. Diqqat bilan eshiting! Doirada nechta usul ijro etilganini eslab qoling.

**Fonda:** Grammofon yozuvida doira usullari yangraydi.

**Musiqra rahbari:** Mana, doira usullarini ham tingladik.


Qani, ayting-chi, nechta usul ijro etildi?

**Bolalar:** Ikkita doira usuli ijro etildi.

**Musiqra rahbari:** Endi bolalar, «Kuyni o'ylab topib, chal» o'yinini o'ynaydi. Bolalar bilganlaricha doiraga har xil usullarni chalishga va raqssona harakatlar qiladilar.

**Musiqra rahbari:** Taniqli doirachilarni nomini aytib, tanishtirib chiqadi (Usta Olim Komilov, Rahim Isoxo'jaev, G'ofur A'zimov, To'ychi Inog'omov, Qahramon Dadaev, Dilmurod Islomov va boshqalar).


**Musiqra rahbari bolalarga topishmoq aytadi:**



**BUM**

Ko'rinishi bir elak,

Tilagi yaxshi tilak,



**BAK**

Bayram, to'yu konsertlar,

Tomoshalarda kerak.

**Bolalar:** Doira, childirma.

**Musiqra rahbari:** Bolalar, yana qanday urib chalinadigan cholg'u asboblarini bilasiz?

**Bolalar:** Nog'ora, baraban, chang, metallofon... Musiqra rahbari bolalarni o'zbek xalq kuyi «Chittigul» qo'shig'ini doira jo'rligida kuylashga chorlaydi va doirada usul berib

turadi, so'ng bolalar xohishi bilan bir-ikkita qo'shiq doira jo'rligida ijro etiladi.

**Musiq** **rahbari:** Bum-bak, baka-bum, doira chalar.

Bum-bak, baka-bum, bolalar o'ynar.

**Qizlar ijrosida:** Doirachalar bilan raqs (ixtiyoriy). Doira jarayonida «Hoy qiz, nima qilyapsan?» harakatli o'yinini o'ynaydilar. Mashg'ulot oxirida musiq rahbari faol qatnashgan bolalar rag'batlantiradi.

**Musiq** **rahbari:** Doira dum-duma,

Bahori mavsuma.

Kelsa bahor gulg'unchalar,

Qilar tabasuma.

**Fonda:** Kuy yangraydi. Mashg'ulotni yakunlaydi. Bolalar musiq sadolari ostida mashg'ulot xonadan chiqib ketishadi.

Musiq tarbiyasi-insonning ruhiy olami, nozik his tuyg'ulari, ichki kechinmalari va ijtimoiy faoliyatini boshqarishda yosh avlodga shodlik va ilhom baxsh etib, ularning aqliy, ahloqiy rivojlanishiga, badiiy va ma'naviy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quv mashg'ulotlaridan tashqari hollarda yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy ishlarga jalb qilish, birinchidan, tarbiyalanuvchi shaxsni aqliy kamolat sari etaklasa, ikkinchidan uning musiqiy savodxonligi va bilim doirasini kengaytiradi.

### **1.3. MUSIQIY TADBIRLAMING OMMAVIY VA TUGARAK SHAKLI.**

Milliy musiqa ta'limining asosiy maqsadi yosh avlodni milliy musiqa me'rosimizga vorislik qiladigan, bilimli, sog'lom yoshlarni tarbiyalash va ularni Ona-Vatanga bo'lgan mehru muhabbatini oshirishdan iborat. Shu bilan birgalikda har bir o'quvchining musiqiy iqtidorini, san'atga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshirish musiqa ta'limining asosiy vazifasidir. Mazkur maqsadni amalga oshirishda ta'lim mazmuni va o'qitish uslubiylotini takomillashtirishda musiqa ta'limining milliy, an'anaviy va hozirgi zamon yutuqlariga hamda ilg'or tajribalarga ijodiy tayanish maqsadga muvofiqdir.

Respublika umumta'lim maktablari va Oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim tarbiya jarayoni ham shaklan, ham mazmunan jahon andozalariga yaqinlashtirilmoqda. Jumladan, o'quv rejalari dasturlari, darsliklar va boshqa qo'llanmalar qayta ishlanib takomillashtirilmoqda. Yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish, ularni musiqiy merosimizga hurmat hissini muhabbatga, qiziqishga, mehrga aylantirish musiqiy ta'lim oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan madaniyatli, keng dunyo qarashli, mohir ijrochi,

musiqa san`atiga kasbiy qiziqishda bo`luvchi, kishilar bilan ishlay oladigan, yaxshi tashkilotchi, san`atning hamma turlari, ularning umumiy ta`rifi va tarixi bilan tanish bo`lishi, xalq ta`limi sohasida musiqiy cholg`u asbobi, dirijyorlik, musika tarixi, qo`shiq kuylash, retmik hamda raqssona harakatlar bajarish sirlari haqida tishunchaga ega bo`lish bugungi kun talablaridan biridir.

Ta'lim jarayonining nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ilg'or muallim tajribalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, darsni turli bosqichlarga bo'lib o'tish mashg`ulotning ijobiy natijalarini beradi. Bu esa o'z navbatida musiqa fani o'qituvchisi darsni ijobiy olib borishi bilan birgalikda o'quvchilarni sinfdan tashqari musiqiy-ma'rifiy ishlarga tayyorlash hamda ularni musiqaga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirish muhumligidan dalolat beradi.

Musiqa san'atini rivojlantirish borasida sinf-sinfdan tashqari musiqiy tadbirlarning ommaviy va tugarak formalari mavjud bo'lib ularni uyushtirish va o'tkazib turush har bir musiqa rahbarining burchidir. Milliy san'at ayniqsa, musiqa nazariyasi va tarixining rivojlanish yo'li mashhur musiqa namoyondalarining ijodiy merosini targ'ib va tashviq etishda muhum ahamiyatga ega. Bu esa o'quvchilarning po'xta bilimi bilan qurollanmay qolishiga barham beradi.

Musiqqa o'qituvchisi o'z fanini jon dildan sevishi, bolajonlarni hurmat qilib, mehr bilan musiqqa darslarini olib borishi o'z faoliyatida pedagogika, psixologiya, musiqqa uslubiyoti etika va nafosat tarbiyasini uyg'unlashtira olishi milliy musiqamiz qonuniyatlarini, madaniy merosimizni, yosh avlod ongiga to'g'ri va sodda qilib etkaza olishi musiqqa o'qituvchisi oldiga qo'yilgan vazifalardandir.

Xozirgi zamon musiqqa o'qituvchisi pedagogik muloqat ustasi bo'lishi, har qanday vaziyatda ham pedagogik ta'sir usullaridan unumli foydalanish qobiliyatga ega bo'lmog'i lozim. O'quvchi yoki talaba o'z istagiga binoan o'zi yoqtirgan qo'shiqni tanlab ijro yo'lini o'rganib kelishi va kelgusi darsda o'quvchilarga o'rgatishi kerak.

Qo'shiq kuylashni mashq qilish, tanlagan musiqiy asarini matnini yod olish uni tahlil qilish, notalarning o'lchovlariga mos ravishda raqssona harakatni bajarishi jarayonida har bir bola ham jismonan, aqlan rivojlanishiga yordam beradi. Bolaning sog'ligiga ham juda foydalidir. Buning uchun bolalar qiynalmasdan mashqlarni bajarishi uchun uning yoshiga qarab tanlashi lozim. Rahbar musiqiy mashg'ulotlarga qabul qilish jarayonida uning qiziqishi va istaklariga amal qilgan holda to'garaklarga qabul qilishlari maqsadga muvofiqdir. Raqssona harakat loihalari ilova qilingan.

Musiqatili umumbashariyat tildir, Musiqa kishini yangi bir olamga eltadi, xayotni yangi jilolarda kursatib, ezgu xis - tuygular uyg`otadi va kishini ijodiy mehnatga chorlaydi. Musiqa ohanglari bizga olam-olam ruxiy oziq berish bilan birga aqliy rivojimizga har tomonlama barkamol inson bulishimizga katta yordam beradi.

O'rta Osiyoning madaniyat markazi bo'lgan Buxoro va Samarqandda o'zbek musiqa san'atining xususiyatlari deyarli boshqachadir. Buxora va Samarqand mahalliy uslubi xususiyatlarining muhum farqi musiqa merosi va ijrochilikning ikki turga-og'zaki an'adagi professional san'at va folklorga bo'linishidadir. Musiqa folk'lorining mohir namoyondalari bilan bir qatorda bu erda professional san'atkorlar sozanda, hofiz va raqs san'ati katta o'rin tutub ular maqom va boshqa musiqa janrlarining bilimdon ijrochilari sifatida tanilgan. Bu xususiyatlar meros mavzusiga va janrlari hamda musiqa hayoti xarakteriga ta'luqlidir.

Kichik shakildagi ma'lum turkumni tashkil etuvchi xilma-xil mazmunga ega bo'lgan raqs-o'yin qo'shiqlaraing ijrochilari sozandalar ham keng e'tiborga ega bo'lganlar. Bu qadimiy shaharlarda cholg'u asboblari turlarining bo'yligi marosim qo'shiq kuylari va raqs san'atining xilma-xilligi xarakterli bo'lishi bilan birga eng yaxshi ijrochi xonanda, sozanda va

raqqosalar ishtirokida musiqa va se'riyat kechalarining muntazam o'tkazilib turulishi ham odat bo'lgan.

Buxora va Samarqand viloyatidagi o'zbek musiqa folk'lori esa ko'p jihatdan tojik musiqasi bilan ma'lum darajada umumiylikka ega bo'lib tarixiy taqdiri deyarli o'xshash bo'lgan har ikkala qardosh xalq o'zbeklar va tojiklarning babbaravar darajadagi musiqa merosidir.

"Shashmaqom" bu fikrimizning dalili bo'la oladi. Olti maqomning har biri o'ziga xos tovush pardalariga ega bo'lib bu pardalar asosida bastakorlar cholg'u kuy, ashula va raqs san'ati yo'llarini yaratganlar. O'quvchilar Buxoro va Samarqand mahalliy uslublari haqida chqurroq o'qib o'rganib kelishlari kerak. Talaba-o'quvchilar har bir viloyat qo'shiqchilik san'ati usullari bilan tanishi chiqishlari masalan: Xorazm, Farg'ona, Surxondaryo va Qashqadaryo usullarini o'qib o'rganish.

Musiqaviy asarlarni tinglash va ijro etish jarayonida bolalarning yoshlari inobatga olingan holda rejalashtirish maqsadga muvofiqdir. Aksincha, bolalar yoshlariga mos bo'lmagan musiqiy asarlar bolani toliqtirishi mumkin. Musiqani kuylash va tinglash orqali ularda qandaydir raqssona kuch paydo bo'ladi. Raqssona kayfiyat hosil bo'lib, asarning xarakteriga moslashib oladi. (Raqssona harakat loihalari ilova qilingan).

## **2.2. TA'LIM SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA MUSIQA RAHBARINING VAZIFALARI**

Musiqqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo`lib, o`quvchilarda musiqqa madaniyatiga bo`lgan qiziqishi va mehr muhabbatini oshiradi. Musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy ijodkorlik his tuyg`ularini rivojlantiradi, atrofdagi go`zal narsalarni to`g`ri idrok etishga va qadrlashga o`rgatadi. Har bir xalqning qadimdan shakillanib kelayotgan o'z raqs san'ati mavjud va shu raqslarni ifoda etuvchi kuylari bo'ladi.

Musiqqa rahbari ta'lim samaradorligini ta'minlashda, bolalarning musiqqa mashg`ulotlariga bo`lgan qiziqishini o`stirishda etakchi omil bo`lib hisoblanadi. Demak, yangi dastur mazmunida mashg`ulot o`tish uchun, musiqqa rahbari o`zining musiqiy-nazariy bilimlarini takomillashtirish lozim. Chunki, mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi nafosat tarbiyasi masalalarini, insonni ma'naviy, ma'rifatli qilib tarbiyalash masalalarini hal qilishda jamiyat va davlat tomonidan qo'yilgan katta ma'suliyatni musiqqa o`qituvchisi oldiga vazifa qilib qo`ymoqda.

Musiqqa bolaga har tomonlama yordam berishi, tevarak-atrofni obrazli emosionalidrok etishi va bola xarakterining shakillanishiga ta'sir kursatishi uchun musiqqa tarbiyasining

maqsadidan kelib chiqib, bolaning musiqaviy qobiliyatini rivojlantirish, ashula aytish va musiqaviy ritmik malakalarga o`rgatish, musiqani qabul qilish, his etish va tushunish qobiliyatlarini tarbiyalash, badiiy–ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish kabi vazifalar har bir tarbiyachi va musiqa rahbarlarining asosiy vazifalarida biridir.

O'zbek xalq raqslari ham keng ommalashgan bo'lib nafis harakatlar va ularga yarashgan milliy kiyimlar bilan badiiy obrazlar yaratiladi. "Dilxiroj", "Qari navo", "Zang", "Dulongcha" kabi raqs kuylari yaratilganda ko'z oldimizda aniq raqs harakatlari keladi. Bu ko'rinishni saxnaga chiqishdan oldin ular savol-javob tariqasida suxbatlar qilib, mavzuga va ularning yoshlariga mos holda mashg'ulotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, o`quvchilarning yosh fiziologik xususiyatlari ko`nikma va malakalarga qarab musiqa fanining turli xil metodilari qo`llaniladi. Bunda ta'lim usuli, o`quv materallarining ta'lim prinsiplari, o`quv tarbiyaviy ishlarining umumiy maqsad va vazifalari eng muhim ahamiyatga egadir.

Keyingi davrda XX asrning 2-yarmidan boshlab Muhammadjon Mirzayev, Baxtiyor Aliyev, Mustafo Vafojev va boshqa bastakorlarning yangi kuy ohanglari asosida o'zbek raqs san'ati rivoj topdi. Bunga Mukarrama Turg'unboyeva,

Qunduz Mirkarimova, Yulduz Ismatova va Roziya Karimovalarning sahnalashtirgan raqslari misol bo`la oladi. Bugun biz sizlar bilan o'zbek xalq raqs holatlarini birgalikda o'rganamiz O'zbek raqs holatlari etti xil bo'ladi, bugungi darsimizda raqs holatlarini musiqa orqali bajaramiz.

O'zbek xalq milliy raqsi 7 ta holatdan iborat shu holarlarni mukammal o'rganib bir-biriga birlashtirilsa bitta raqs dunyoga keladi o'quvchilar o'zlari hohlagan milliy kuyga raqs sahnalashtirishni mashq qilib tayyorlab kelishlari kerak. Mavzudan kelib chiqib, o'zbek xalq raqs holatlaridan na'munalar, musiqaga monand raqssona harakatlar bajarish maqsadga muvofiqdir.

**Milliy raqs va xoreografiya.** Xalqimizda «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan maqol bor. Har bir bola birinchi tarbiyani o`z ota-onasidan, oila a`zolaridan, o`z atrofidagi yaqin kishilardan oladi. Oiladagi ijobiy muhit, oila a`zolarining o`zaro munosabatlari, bir-biriga bo`lgan hurmat va e`tibor, mehribonlik, o`zaro yordam va ularning musiqaga bo`lgan munosabatlarini bolalarda dastlabki tushuncha va ko`nikmalarining rivojlanib borishida asosiy o`rin tutadi.

Bolalar shaxsi uning faoliyati jarayonida tarkib topdi. Zotan, o`quvchining faoliyati juda maroqli, o`ziga xos go`zal va shakl jihatidan rang-barangdir. Bu xil fazilatlar bolalarga

xos bo'lgan doimiy extiyojga aylangandagina ulardagi faollik yanada ortadi. Maroqli va ma'naviy zavq beruvchi ana shu go'zal tuyg'u bolalar va o'quvchilarning ayniqsa, nafosat tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, bolada namoyon bo'ladigan ilmiy badiiy-estetik tarbiya muhim ma'naviy go'zallikka puxta, zamin hozirlaydi. Qalbi go'zal odamning istarasi issiq bo'ladi.

Qalbi go'zal odam chiroyli kuladi raqs gupurayotgan qalbning tashqi to'lqinidir. Azal-azaldan yuksak ma'naviyatli xalqimizning diltortar musiqalariyu ularga monand raqslari bisyor. Ular asrlarki xalqimiz e'tiborida qalbimiz turida.

Raqs tushayotganda insonni yomon uy hayollar butkul tark etadi. Vujudini ajib bir hushnudlik qamrab oladi, lablari beixtiyor tabassum izmiga tushadi. Qoyilmaqom ijro etilgan raqsni tomosha qilganimizda rohatdan entikib ketamiz. Qalbimizga iliqlik ajabtovur jimirlash yoyiladi, bizning mana shunday raqsalarimiz, raqqosalarimiz va raqqosalarimiz bor.

Mukarrama Turg'unboyeva, Yulduz Ismatova, Isoxor Oqilov Viloyat Oqilova va boshqalar. Ular ijro etgan raqsar asrlar davomida xalqimiz qalbidan o'rin olib kelgan. Raqs san'ati ajdodlarimiz tomonidan rivojlangan, takomillashgan holatda bizgacha etib kelgan, biz ham bu kuhna va navqiron san'atimizni yanada yuksaltirib ajdodlarimizga etkazish

burchlimiz. Shu ma'noda "O'zbekiston milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risidagi" farmon 1997 yil 8-yanvar kuni prezidentimiz tomonidan e'lon qilindi. Zero milliy raqs san'ati madaniyatimizning ajralmas bir qismi xalqimizning dunyoga ko'z-ko'z qilishga arzigulik o'lgan boyligidir. Musiqa madaniyati darslarini olib borish jarayonida barcha faoliyat turlaridan ya'ni musiqa menglash, jamoa bo'lib kuyalsh, musiqa savodi, musiqaga monand rassona harakatlar bajarish va bolalar cholg'u asboblari bilan jo'r bo'lish.

Musiqiy asarlarni tenglash va kuylash, ritmika, raqssona harakatlar bajarish orqali o'quvchilarning bilim saviyasini mustahkamlash. Milliy raqs va xoreografiya, xalq raqs holatlaridan namunalarni ijro etish. Musiqaga monand raqssona harakatlar bajarish.

Respublikamizda bugungi kunda pedagogika sohasidagi eng zamonaviy axborotlar bilan tanishish uchun qo'lay sharoitlar yaratilgan. Musiqa o'qituvchilari uchun eng tezkor va axboratlarni oson qabul qilish bo'lgan manbalardan o'z hamkasblari bilan jonli muloqatda bo'lishi, televidenie, radio yangiliklari va dasturlar musiqa o'qituvchilarining zarur axboratlarni qondirishda asosiy vazifa bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa mashg'ulotlarini olib borish jarayonida bolalarning yoshlik xususiyatlarini e'tiborga olib uni ilk yoshidan tashkil

qilish va yo`naltirish- pedagog vazifasidir. Aks xolda bola rivojlanishida orqada qolish seziladi. Misol uchun bolalarni ilk yoshida musiqaviy tovushlarning balandligi bo`yicha ajratib borishga o`rgatilmasa u yetti yoshida bu vazifalarni uddalay olmaydi. Musiqaviy rivojlanishning muhim xususiyatlari quyidagilardir:

- eshitish sezgisi, musiqaviy eshitish qobiliyati;
- har xil xarakterdagi musiqalarga emotsional munosabatning sifati va darajasi;

Qo`shiq kuylashda, musiqaviy ritmik harakatlar bajarishda oddiy ko`nikmalar hosil qilish. Bolalar hayotining 1-yili ruxshunoslar bolalarda eshitish-sezish erta uyg`onishini ta`kidlaydilar. 2 oylik bola ovozga, musiqa tovushlariga quloq solib tinchib qoladi.

4-5 oyiik bolalar ovoz kelayotgan manbani izlaydilar. Qo`shiq kuylayotgan ovozga quloq tutadilar. To`g`ri rivojlanayotgan bola birinchi oylardan boshlab musiqa xarakteriga kompleks jonlanish munosabatida bo`ladilar, ya`ni ular quvonadilar yoki tinchib qoladilar. Bola hayotining birinchi yili oxiriga borib kattalar qo`shig`iga g`uvillash bilan jo`r bo`lishga harakat qiladi.

Bolalarga quyidagi raqslar va xorovodlar o`rgatiladi.

1. Musiqaning tuzulishiga kura raqs elementlari mujassamlashgan. Masalan: "Andijon polkasi" ni olaylik, u uch qismdan iborat bo'lgan musiqa. Biz rasq o'rgatayotgan vaqtda gruppada imkoniyatlarini hisobga olib uni katta avjini olib tashlab ikki qismli qilib ham o'rgatishimiz mumkin.

2. Erkin raqslar-ijodiy xarakterga ega bo'lib unda bolalar boshqa mashg'ulotlardan olgan ko'nikma va malakalarini ishga solib o'zlari yangi raqslar yaratadilar.

3. Raqs xarakteridagi xorovodlar va o'yinlar "Xorovod" rus xalq san'atiga mansub bo'lib davra qurab qo'shiqning so'zlariga mos harakat qilish demakdir.

Xorovod xarakteriga mos o'zbek xalq o'yinlari mavjud. Masalan: "Choriy chanbar", "Oq terakmi ko'k terak", bu o'yinlar ko'pincha o'yin-kulgi bayramlar payti o'ynaladi.

4. Shartli ravishda o'ynaladigan bolalarning bal raqslari vals va polka xarakteridagi raqslar vositasida bolalarga bal raqslari elementlari o'rgatilib boriladi.

Bunda sho'x quvnoq kuyda takrorlanuvchi xarakat sxemalari asosiy rol o'ynaydi. Bunda biror personaj obrazi masalan quyon, tulki, bo'ri qushlarni xarakatlari aks ettirib ularning obrazlarini qilish kerak bo'ladi. Bu raqs turlari o'rta guruhlarda esa juda soda va oson harakatlar o'rgatiladi.

Musiqqa o`qituvchisi o`z kasbiga faniga etiborli bo`lib har bir darsning tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yuritib, musiqiy tarbiyani shakllantirish bilan bir qatorda musiqqa mazmuni metodlari, musiqiy faoliyat turlarining qo`llanishi va tarbiyaviy ahamiyati haqida tushunchaga ega bo`lishi lozim.

Musiqiy tarbiya orqali insonning ruhiy olami, nozik his to`yg`ulari, ichki kechinmalari va ijtimoiy faoliyatini boshqarishda yosh avlodga shodlik, ilhom baxsh etib, fikrlash doirasini kengaytiradi. Musiqqa o`qituvchisi musiqiy merosimiz, milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga alohida e`tibor berishi, mumtoz musiqaning yuksak durdonalaridan ma`naviy zavq olishish sirlarini o`quvchilarga o`rgatishi zarur.

Musiqqa o`qituvchisi yosh avlodni tarbiyalashda milliy merosimiz, an`analarimiz va nazariyasini o`rganish hamda savodxonligini oshirish bilan bir qatorda, hozirgi va kelajak avlodlarni tarbiyalashdagi yuksak mas`uliyatlarini anglagan holda qonunlarimizni mukammal bilishi va unga amal qilish bugungi kun talablaridan biri ekanligini his etishga o`rgatish. Musiqqa o`qituvchisi ilmiy tafakkur egasi, ilg`or tajribalar shaydosi, izlanuvchan ijodkor bo`lib, o`qitishning yangi shakl va usullarini kashf etishga intilmog`i lozim.

Barcha xalqlarning milliy raqslari singari bizning o'zbek milliy raqslarimiz ham o'z jozibalari liboslari bilan ajralib

turadi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng san'atning ko'pgina turlari qatori o'zbek milliy raqsiga ham prezidentimiz tomonidan alohida e'tiborga olindi, bu botada ko'pgina katta raqqosalarimizga usta beletmestrlarimizga bir qancha unvonlar berilganidan biz ham xursandmiz.

Masalan: mustaqilligimizning 7 yilligi arafasida usta san'atkor Viloyat Oqilovaga "El-yurt xizmatida" degan unvon berildi. V.Oqilovaning sevimli shogirdlaridan Rozaxonimga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" sharaflı nom berildi.

V.Oqilovaning shogirdlaridan Rushana Sultonovalar ham xizmat ko'rsatgan artist nomiga sazovor bo'ldilar. Bularning hammasi juda katta mehnat, izlanish milliy raqslar turli raqslarni me'yyoriga etkazib ijro etish va tomoshabinlar qalbidan chqur joy olishlar tufaylidir.

Bugungi kunda miliy raqslarimizni rivojlantirish uchun katta e'tobor berilmoqda. Bizning ham maqsadimiz ana shu milliy raqslarimizni yaxshilab o'rganib tanishib kelajak avlodlarimizga o'rgata olishdan iborat. Undan asosiy e'tiborni hafakatlarning me'yoriga, musiqa va millatlarga xos liboslarning rangbarangligi hamda harakat unsurlarini mavjud makon va zamonda taqsimlanishiga, musiqiy harakatlarning joizibali boshqarishiga qaratish barobarida, harakatlar ijrosining texnikasini ham unutmasligi talab qilinadi.

Musiqiy me'yor esa zarbali me'yorga nisbatan ham juda katta ustunlikka ega zarbli me'yordan foydalanish, alohida va kam ucliraydigan zarbalardan tashkil topgan holatlarni mexanik ifodalashga olib kelar, harakatlarni his-hayajonga boyitish imkonidan mahrum etardi.

Shuning uchun ham aynan musiqiy me'yor cheksiz xilma-xilliklari bilan qiziqish uyg'otadi va me'yor tuyg'usini tarbiyalash maqsadida keng qo'llaniladi. Harakat ritmga oid mashg'ulotlarda juda xilma-xil bo'lib, jismoniy tarbiya, raqs kabi ko'rinishlarda ko'proq ko'zga tashlanadi. O'zbek milliy raqs liboslarini chizib liboslar qaysi raqslarni kiyilishini yozib kelish hamda milliy raqslarimizni yaratgan usta raqqosalarimiz hayoti va ijodini o'qib o'rganish.

O'zbek xalq o'yinlari, xalq raqs holatlari, milliy raqs liboslarini chizib, raqssona harakatlar bajarish. Qiziqarli musiqiy mashg'ulotlar olib borish bolalarda musiqa mazmuniga tushunish munosabatini rivojlantiradi va musiqani tinglashga ishtiyoq tug'iladi. Bolaning musiqaviyligi uning faol musiqaviy faoliyati orqali tarbiyalanadi. ularning bilimini baholash uchun qiziqarli o'yinlar tashkil etish va musiqaqaga yunaltirish orqali qiziqishini uyg'otish, ommaviy raqsga tushush orqali do'stlik va o'rtoqlikni tarbiyalash munosabatlari mustahkamlanadi.

Ritmik harakat bajarish bu musiqa orqali harakat bajarish demakdir. Biz o'tgan darsimizda ritmik harakat bola organizmi uchun foydali tononlari haqida suhbatlashgan edik. Bolaning tanasidagi qonni yaxshi aylanishida muskullarini mustahkamlashda, qomat to'g'ri usishiga yordam beradigan harakat yani musiqali harakat jismoniy mashqlarning turlaridan biridir. Bu mashqlarni bola kichik yoshligidan o'rganib borsa foydadan holi bo'lmaydi.

Buning uchun bog'chada bu mashqlar ertalabki badan tarbiya vaqtlarida utkaxilishi kerak chunki bu mashqlarni bajarayotgan paytda bola ham musiqani eshitib shu musiqaga mos hatti harakatlar bajarganda uning kun davomidagi kayfiyati ko'tariladi hamda bolaning eslash kobiliyati ya'ni xotirasi mustahkamlanadi.

Bolalar va kattalarga ham ertalabki retmik mashg`ulotlar ko'tarinki kayfiyat bag`ishlab, kun davomida hamroh bo'ladi. Shu bilan birgalikda bolaning sog'ligiga ham juda foydalidir. Buning uchun bolalar qiynalmasdan mashqlarni bajarishi uchun ularga tanish bo'lgan yoqimli musiqalarni o'qituvchi bolaning yoshiga qarab tanlashi va ular urgangan hatti harakatlarni shu musiqaga moslashtirib o'rgatishi lozim. Musiqaning har bir taktiga bugungi o'rgangan mashqlarimiz va harakatlarimizni moslashtirib takrorlash.

Musiqiy asar tanlanganda bolalarning yoshlariga qarab kichik-kichik asarlar tanlash, yani "Tol yog'ochdan ot qilib" o'zbek xalq ashulasiga moslashtirib ritmik harakatlar bajarish.

Musiqaviy deganda nimani tushunishimiz kerak? Bu sifat o'z ichiga qimmatli ikki tomonni oladi:

a) Emosional jonkuyarlilik-musika asari uning obrazli mazmuniga aloqador qayg'ura olish qobiliyati;

b) Bolalarga nozik eshitishni, asarning musiqiy tovushlarini ajrata olish, qaysi musika asbobida ijro etilishi ajratishni ta'minlaydigan musika idroki va musiqaviy qobiliyatlarni rivojlantiish.

Musiqaviylikni har ikkala tomoni ham ajralmas birlikda turadi va bir vaqtning o'zida tarbiyalanadi. Musiqaviylikning rivojlanishi tufayli bolalar musika obrazlarini-ularning atrofdagi qo'shimcha obrazlarni bolalar yorqin his eta boshlaydilar. Bu esa o'z navbatida, ularning tevarak-atrofini bilishda, estetik baholashni-nafosat tarbiyasi, badiiy didni, musiqaga muhabbatni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Musika madaniy hayotimizda keng o`rin to`tg`an inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san`at turi ekanligini his etgan holda musiqiy mashg`ulotlarini bajarishga o`rgatish va bolajonlarimizga milliy o`zbek xalq raqslari bilan yaqindan tanishtirishdan iboratdir.

Raqs-musika tovush tovlanishlari orqali fikr va tuyg`ularni aks ettiradi, hayot bosqichlarida insoniyatni to`lqinlantirib kelgan ahloqiy muammolarni bayon qiladi. Bunda musiqaning va raqs san'atining falsafiy moh'iyati ham namoyon bo`ladi. Ajoyib musika asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug`orilgan bo`ladi.

Musiqada hayot va o`lim, shaxs va jamiyat, ezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks ettiriladi. Musika va raqs hayotning barcha tamonlarini aks ettira oladi. Bir vaqtning o`zida ham epik, ham lirik, ham dramatik, ohanglarda jaranglayveradi, uning ifodali tabiatiga ko`ra, ko`proq lirikaga moyil, lirika esa musiqaning nafosat asosini tashkil etadi. Bularning barchasini raqs san'ati ham o`z ichiga oladi. Nozik harakatlar orqali ularni tomoshabinlarga yetkazib beradi. Ustoz san'atkorlarimiz sahnalashtirgan raqs holatlari va uning tarbiyaviy ahamiyati haqida yosh avlodga o`rgatish musika o`qituvchilarining asosiy vazifalaridan biridir.

Masalan: Sharq xalqlari raqqosasi Tamaraxonim hayoti va ijodiga nazar tashlaganimiz. Tamaraxonim ham ana shunday buyuk san'atkorlarimizdan biridir. Uning ijodiy yo`lidagi bosqichlari o'zbek xalq san'ati taraqqiyotining eng muhim bosqichlari bilan hamohangdir. U xali juda yosh qizlik davridayoq 1919 yili ilk bor sahnaga chiqib birinchi

o'zbek dramaturgi o'zbek xalqining ozodligi, turkistonda xokimiyatini barpo etish uchun kurashchi, shoir va kompozitor Hamza Hakimzodaning qo'shiqlarini ijro etdi.

Tamaraxonim ijodiy faoliyatini bir kun ham to'xtatmasdan har bir konsertini yangi qo'shiqlar bilan boyitdi, yangi yangi raqs va kuylar qidirdi va ularni o'rgandi. Turli xalqlarning yangi yangi kiyim boshlarini o'z ijodida qo'lladi.

Tamaraxonim professional mahorati o'sgan sari uning konsert repertuarlari ham boyib bordi. Tamaraxonim namoyish qilgan o'zbek xalqlarining san'ati tenglovchi va tomoshabinlarning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoldi. O'zining rang-barangligi, boyligi bilan kishilarni qoyl qoldirib, ijrochilik mahorati barchani maftun etdi.

Tamaraxonim xalq raqsi merosining eng qimmatli, o'ziga xos yorqin tamonlaridan foydalanib qadimgi nozik nafis raqslarini yangi xususiyatlari bilan boyitdi va raqsda sharqning qudratli, suluv va ozod ayolini namoyish qildi.

Demak, biz musiqa rahbarlari Tamaraxonim kabi ustoz san'atkorlarimizning ijodini o'ganib, yoshlarga o'rgatishimiz zarur. Musiqa rahbari ta'lim samaradorligini ta'minlashda, bolalarning musiqa mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishini o'stirshda etakchi omil bo'lib hisoblanadi.

### **2.3. RAQS O'RGATISHDA MUSIQA ASBOBLARIDAN FOYDALANISH VA ASOSIY RITMIK HARAKATLAR BAJARISH YULLARI**

Yangi dastur mazmunida mashg`ulot o`tish uchun, musiqa rahbari o`zining musiqiy-nazariy bilimlarini takomillashtirishi lozim. Chunki, mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi nafosat tarbiyasi masalalarini, insonni ma'naviy, ma'rifatli qilib tarbiyalash masalalarini hal qilishda jamiyat va davlat tomonidan qo'yilgan katta ma'suliyatni musiqa o'qituvchisi oldiga vazifa qilib qo'ymoqda.

Hozirgi kunda yangi dasturlarni o`ziga xos yana xususiyatli tomoni shundan iboratki, musiqa madaniyati fanini asosi bo`lgan musiqa savodxonligini tarkib toptirish lozim bo`lgan, qator musiqiy, qonuniyatlar, jumladan, musiqa nutqi, musiqa ifoda vositalari, musiqa shakllari, raqssona harakatlarning turlari, musiqaning tuzilishi va rivojlanishi, musiqaning zamonaviyligi kabilar chuqur, mukammal o`rgatilish kerak.

Demak, yangi dastur mazmunida mashg`ulot o`tish uchun, musiqa rahbari o`zining musiqiy-nazariy bilimlarini takomillashtirish lozim. Chunki, mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi nafosat tarbiyasi masalalarini, insonni

ma'naviy, ma'rifatli qilib tarbiyalash masalalarini hal qilishda jamiyat va davlat tomonidan qo'yilgan katta ma'suliyatni musiqa o'qituvchisi oldiga vazifa qilib qo'ymoqda.

Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Shunday ekan, musiqa rahbari ta'lim samaradorligini ta'minlashda, bolalarning musiqa mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishini o'stirishda etakchi omil bo'lib hisoblanadi.

#### 1. Ritmik-raqssona yo'lida yosh avlodni tarbiyalash g'oyasi.

Qo'shiq tinglash tarbiyalanuvchi ongida estetik zavqning paydo bo'lishi, olamni go'zalroq idrok etishi, hamisha go'zallik oshuftasiga aylanishiga yordam berish bilan birga uni yovuzlik va qabohatidan nafratlanishga o'rgatgan. Ayni damda yoshlar kamolatida musiqiy tarbiya yuqorida zikr etilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun majburiy ta'lim dasturidan o'rin olgan. O'quvchilar bilan musiqa orqali ritmik harakatlar bajarishni o'rganish jarayonida bolalarga bu harakatlarning foydali tomonlarini o'rganib chiqdik. Shu bilan birgalikda endi o'quvchilar bilan tayoqchalar bilan harakatlar bajarishni ham o'rganamiz. Tayoqchalar bilan bajarilgan harakatlar ham musiqa orqali bajariladi.

Ritmik harakatlar amaliy bajariladi. Tayoqchalar bilan harakat bajarishda bolalar iki narsaga e'tibor berishlari kerak. Birinchidan musiqani tinglash, musiqa tinglaganda uning usuliga tempiga dinamikasiga e'tibor berilishi lozim musiqa orqali tayoqchalar ni harakatga keltirishda bolaning eslab qolosh qobiliyati usiga yordam bersa harakat esa uning tanasini rivojlanishiga foydalidir. Balki tayoqchalar o'rniga bayroqchalar sharlar yoki gullar ham bo'lishi mumkin.

Bugungi darsimizda M.Muhammadjonov musiqasi Sh.Sa'dullo she'ri bilan " Ertalab" qo'shig'iga tayoqchalar bilan harakatlar bajarishni o'rganamiz. Har bir o'quvchi tayoqchalar bilan bajariladigan harakatli o'yinlarni o'ylab topib yozish va mavzuga oid didaktik vositalardan foydalanish yullarini o'rganish. Mashg'ulot jarayonida harbir bolaning qo'lida bo'lishi lozim. Ushbu tayoqchalar orqali bolalar har xil raqssona mashqlar bajaradilar.

Raqs-san'atning bir turi. U o'z ohangi bilan sho'zchan va jozibador bo'ladi. Raqs kuyini tinglagan odam behosdan harakatga tushadi. Ayniqsa bolalar har bir kuy va qo'shiqni tinglaganda, uning musiqiy ohanggi kuychan ya'ni raqssona harakterda bo'lsa tinglovchilarni raqsga chorlaydi.

Raqslar o'rgatishda mashqlar juda katta yordam beradi. Bu raqsni maktabda tayyorlov guruhlarida to'liq holda ham

o'tkazishimiz mumkin. Bu raqsni yakka holda kichik guruh shaklida o'rganish mumkin. Harakatlarni oldin mashq sifatida o'rganib keyin ulardan raqs elementlari tuziladi.

Raqslar o'rgatishda yana musiqa asboblariidan unumli foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Emosional jonkuyarlikni tarbiyalash yullari turlicha. Mashg'ulotlar olib borish jarayonida mohir metodik usullar orqali avvalgi tajriba bilan chambarchas bo'liq holda bolalarni musiqa asarlarining bajarilishiga jalb qilish mumkin.

Masalan: ashula aytish, raqsga tushish, bolajonlarimizga xos milliy urf odatlarimizdan ko'rinishlar saxnalashtirish va namoish etish mashg'lot samaradorligini yanada oshiradi.

Bolalar qanchalik tanish musiqa asarini tinglasalar, shunchalik ularning musiqaviy faoliyati mustahkamlanadi. Suhbat musiqaga yanada ong'liroq munosabatda bo'lishga yordam beradi. Uyichoqlar, rasmlar, she'riy va obrazli so'zlar qullanishi musiqa orqali ko'zatilgan kuy ogohlikni chuqurlashtiradi va shu asosda musiqani yanada nozik tinglash qobiliyati ortadi. O'z navbatida qo'shiq aytish va harakatlarini bajarish bolaning faolligini mustahkamlaydi. Musiqiy idrokini tarbiyalashda quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

Musiqa orqali va musiqasiz ham bajansh mumkin bo'lgan harakatlar. Har ikkalasi ham sog'ligiga katta foydalidir. Asosiy

ritmik harakatlarga eng avvalo qo'l, oyoqqa ko'p qoq mashqlar beriladi. Bugungi darsimizda asosan ritmik harakatlarni tananing asosiy a'zolari orqali bajarishni davom ettiramiz. M.Oqilova she'ri. I.Akbarov musiqasi bilan "Ayiqlcha" ashulasiga harakatlar bajarishni o'rganamiz. O'quvchi musiqa rahbari bajargan asosiy ritmik harakatlarini takrorlashi kerak.

Har bir millat va xalqning o'zi sevgan raqs, kuy va qo'shiqlari mavjud.

Bizda: "Buxoro-Samarqand", "Xorazm", "Farg'ona-Toshkent", "Surxon va Oashqadaty" kabi xalq raqs holatlari, kuy va qo'shiqlari ayniqsa mashxurdir.

**Buxoro** raqslarining asosiy harakatlari.

### **Bosh holati:**

**1-holat.** Bosh to'g'ri turish.

**2-holat.** Yonga burilish

**3-holat.** Yon-yonga yoni bilan egilish.

**4-holat.** Oldinga, orqaga sal egilish.

### **Gavda holati:**

**1-holat.** Bir nuqtaga yig'ishtirilgan, elka rasmiy holatda.

**2-holat.** Gavdaning umurtqa suyaklari tortilgan, elkalar rasmiy holatda.

**3-holat.** Gavdaning umurtqa suyaklari tortilib, sal belga o'tkazilgan.

## **Yuqoridagi gavda turishlarda tizzalar holati:**

- a) rasmiy holatda;
- b) sal tortilgan;
- v) tortilgan;
- g) sal egilgan;
- d) sal egilgan ham- bir oz yonga burilgan.

**Qo'l holatlari:** Buxoro raqslarida qo'l holatlari rasmiy holatdan tashqari ettita, yi-gitlar va qizlar holatlarining farqi yozishda tushuntiriladi.

**Rasmiy holat:** Qo'llar yonda bo'lib, qo'ldastalar rasmiy holatda.

**1-holat.** Rasmiy holatdan tirsaklar sal bukilganroq bo'lib, barmoklar uchi pa-stga qaragan holda elka balandligiga mayin ko'tariladi, so'ng kaftlar yonga qaratilib, barmoquchlari yuqoriga qaratiladi. Barmoquchlari elka balandligida bo'lib, bosh barmoqo'rta barmoqqa sal egilgan yoki barmoq-lar to'g'ri bo'lishi ham mumkin.

**2-holat.** Birinchi holatdan tirsaklar sal bukilganroq, barmoklari pastga qara-tilib bosh ustiga mayin ko'tariladi, so'ng kaftlar yuqoriga qaratiladi, qo'llarni bosh ko'tarilmay ko'z ko'rishi kerak.

**3-holat.** Ikkinchi holatdan o'ng qo'l kafti boshning orqa o'ng tomoniga qo'yila-di. Chap qo'l birinchi holatga tushadi.

**4-holat.** Uchinchi holatdan chap qo'l kafti yuqoriga qaratilib, ko'krakning o'ng tomonidan sal pastroqqa keng harakat bilan keladi.

**5-holat.** To'rtinchi holatdan o'ng qo'l kafti yuqoriga qarab birinchi holatga tushadi, chap qo'l o'zgarmaydi.

**6-holat.** Beshinchi holatdan ikki qo'l oldinga keladi, tirsaklar bukilganroq, qo'llar oralig'i elka kengligida, barmoq uchlari yuqoriga qaragan ham elka balandligida, kaftlar esa oldinga qaragan yoki to'g'ri bo'lishi ham mumkin.

**7-holat.** Oltinchi holatdan kaftlar o'ziga qaratilib yon belga qo'yiladi, barmoqlar oldinda, bosh barmoq orqada, tirsaklar yon-yonga qaragan.

**Oyoq holatlari:** Rasmiy holat. Rasmiy holatdan tashqari asosan ettita. Oyoq tovonlari bir-biriga yaqin, uchlari yonga ochilganroq.

**1-holat.** Rasmiy holatdan tovonlar sal ko'tarilib, yon-yonga ochiladi, tovonlar orasi yarim tovonga, so'ng tushadi.

**2-holat.** Hap oyoq tovonni ko'tarilib, o'ng oyoq o'rtalig'iga ro'baro' burilib, so'ng tovon tushadi. Gavda og'irligi ikkala oyoqsa bo'ladi.

**3-holat.** Chap oyoq tovonni ko'targoshb ham orqaga buriladi. Gavda og'irligi o'ng oyoqda.

**4-holat.** Chap oyoq uchida oldinga sal sirpanib keladi. Gavda og`irligi o`ng oyoqda.

**5-holat.** Chap oyoq tovoni tushib, gavda og`irligi ikkala oyoqsa bo`ladi

**6-holat.** O`ng oyoq tovoni ko`tariladi.

**7-holat.** O`ng oyoq tovoni tushadi, chap oyoq tovoni bosilib, uchi ko`tariladi.

**Gavda** og`irligi o`ng oyoqda bo`ladi, so`ng chap oyoq to`liq bosilib, sirpanib, rasmiy holatga keladi.

**II. Salomlarning xillari.** Buxorocha keng ko`ylakdagi salomlar:

1. **Qo`llar** birinchi holatdan kafti o`ziga qaratilib, ko`ksiga ro`baro` keladi, so`ng chap qo`l o`ng eng uchiga, kafti o`ziga qaraganicha qo`yiladi.

**Chap qo`l** engni bir oz o`ziga tortadi. O`ng qo`l oldinroq cho`ziladi, bosh va gavda bir oz oldinga egiladi.

2. **Qo`llar** birinchi holatdan chap kafti ko`ksiga qo`yiladi, o`ng qo`l kaf-ti chap qo`l tersiga qo`yiladi. Gavda va bosh bir oz oldinga egiladi.

3. **Qo`llar** 2-holatday turadi, lekin oldinga ko`proq egiladi.

4. **Qo`llar** birinchi holatdan kaftlar yuqoriga qarab keladi.

So`ng o`ng qo`l ko`ksidan sal yuqoriga, chap qo`l sal pastroqqa qo`yiladi.

## **Rasmiy kiyimda yigitlar va qizlar salomi:**

**1. Chap qo'l rasmiy holatda.** O'ng qo'l birinchi holat orqali kafti o'ziga qaratilib, ko'ksiga qo'yiladi, bosh va gavda bir oz oldinga egiladi.

**2. Yigit salomida esa ikkala qo'l birinchi holatdan** o'ng qo'l kafti ko'ksiga qo'yiladi, chap qo'l belning oldini quchadi, bosh va gavda bir oz oldinga egiladi.

**Bosh harakatlari:** Buxoro raqslarida to'rt xil bosh harakatlari ijro etiladi.

1. Qiyg'ir bo'yin. Bu harakatai ijro etishda elkalar harakatsiz bo'lyush kerak. Bosh go'g'ri turgan bo'lib, bir oz bo'iinga o'tkazilgan.

Bo'yin yon-yonga jilganda qizlar harakatvda muloyim va mayda ijro etiladi.

Qiyjr bo'yin harakatlari yigitlar ijrosida yirik bo'lib, qo'proq hajviy raqslarda qo'llaniladi.

2. Bosh burilishi. Bosh salgana yon-yonga mavda buriladi.

3. Bosh to'g'ri turishda yon-yonga egiladi.

4. Elka qimirlamaydi. Bosh yonga yoki oldinga kichik urg'u bilan, salga-na oldinga jiladi, so'ng muloyim qaytadi.

Iyak harakati. Iyak harakati qiyg'ir bo'yin bilan omuxta bo'lib, bir qiyg'ir bo'yin, bir iyak harakati-ni ijro etish mumkin. (Buxorocha raqs holatlari ilova qilindi).

## RAQSLARDAGI ASOSIY HOLATLAR



1-rasm. Dastlabki holat.



2-rasm. 1-holat



3-rasm. 2-holat



4-rasm. 3-holat.



5-rasm. 4-holat



6-rasm. 5-holat



7-rasm. 6-holat.



8-rasm. 7-holat



9-rasm. 1-holat



10-rasm. 2-holat



11-rasm. 3-holat, 12-rasm. 4-holat, 13-rasm. 5-holat, 14-rasm. 6-holat, 15-ras.7-holat



16-rasm. Dastlabki holat, 17-rasm. 1-holat, 18-rasm. 2-holat, 19-rasm. 3-holat



20-rasm. 4-holat, 21-rasm. 5-holat, 22-rasm. 6-holat, 23-rasm. 7-holat



24-rasm 1-harakat. 25-rasm 1-holat. 26-rasm 2-holat.  
Ayollar salomi.




27-rasm. 1-harakat. 28-rasm. 1-harakat. 29-rasm. 2-harakat. 30-rasm. 2-harakat.  
Ayol salomi. 3-holat. Ayol salomi. 4-holat. Ayol va erkak salomi. 1-2-holat.

## Test savolnomalari

1. Raqsda “Nozik” harakat deganda qaysi holatni tushunasiz?

- A) 1-rasm.
- \*B) 2-rasm.
- S) 3-rasm.



A) B) S)

2. “Chiroyli peshonaband“ harakatini aniqlang?

- A) 1-rasm.
- \*B) 2,3-rasm.
- S) Javob yo`q.



A) B) S)

3. “Egilish”ning to`qqizinchil holatini aniqlang?

- A) 1-rasm.
- \*B) 2-rasm.
- S) 3-rasm



A) B) S)

4. “Charx” aylanish holatini aniqlang?

- A) 1-rasm.
- B) 2-rasm.
- \*S) 3-rasm



A) B) S)

5. “To`fon”aylanish. Dastlabki holat. 1-takti aniqlang?

- \*A) 1-rasm.
- B) 2-rasm.
- S) 3-rasm.



A) B) S)

## **XULOSA VA TAVSIYALAR**

Respublikamizda yosh avlodni ona-Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi nafosat tarbiyasi masalalarini muvafaqiyatli hal qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu jumladan, “Ritmika”, “Raqs” san’atini o`rganishda musiqiy asarlarning badiiy g`oyaviy vositasi orqali o`quvchi-talabalarni ahloqiy-estetik va jismoniy tarbiyalaydi. Ritmik harakatlar bajarilganda tanada qon aylanishi yaxshilanadi, muskullar mustahkamlanadi qomat to'g'ri o`sidi. Ritmik mashg`ulotlar yosh avlodni tarbiyalashda ham ma’naviy, ham jismoniy jihatdan sog`lom bo`lib o`sishiga yordam beradi. Raqs musiqasi raqssona harakatlarning xarakteri bilan chambarchas bog'liqdir.

Masalan: Valsning mayinligi, tangoning tuyg'uga boyligi, polkaning quvnoq, uchqur sur'ati va xalqona xiromlarning sho'xligi o'sha raqslar harakatlarida butunlay o'z aksini topgan.

Musiqiy tilning ma'nodorligi, harakat ifodasini xilma-xil qilish va hayajonli tus oldirish uchun boy material hisoblanadi. Harakatlarning xilma-xilligi va bir-biridan farq qilishi musiqa parchalar to'g'ri va did bilan tanlanganda yaqqol ko'rinadi. Mazkur xarakterdagi o'z xarakatini oqlash, uning uchun ifodali va omadli holatni topish tasavurni va topqirlikni rivojlantiradi.

Ritmik-raqssona harakatlarning ahamiyati shundaki, inson hayotiga sog`lom muhidni olib kiradi. Ritmik mashg`ulotlar, raqssona harakatli o`yinlar bolalarning jismoniy jihatdan o`nib o`sishlariga salomatliklari yaxshilanishiga, chiniqishlariga organizmi va umumiy ish qobiliyatlarining yanada mustahkamlanishiga yordam beradi.

Raqssona harakatli o`yinlarning barcha turlari ko`zga yaqqol tashlanadi. To`g`ri tashkil etilgan raqslar intizomni, sezgiriikni, chaqqonlikni, tezkorlikni, chidanililikni rivojlantiradi. Ommaviy ya`ni jamoa bo`lib raqsga tushush do`stlik va o`rtoqlikni tarbiyalashga yordam beradi.

Raq-s-keng ommalashgan, nafis harakatlar va ma`lum bir ritmik tuzilishlar bilan badiiy obraz yaratishga asoslangan san`at turidir. Raqsdagi bu ritmik va plastik harakatlar musiqa bilan chambarchas bog`liq holatda davom etadi. Xalq raqslari ashula bilan ijro etiladi.

Qadimdan odamlar tabiat va hayvonot dunyosini ularga qanday ta`sir etishini, shuningdek, ovchilik, dehqonchilik chorvachilik faoliyatlarini o`yin obrazli harakatlar, imo-ishoralar orqali so`zsiz tasvirlashi natijasida raqs san`ati vujudga kelgan. Marosim va bayramlarda raqs zo`r qiziqish bilan tomosha qilingan.

Xalq raqs san'ati voqiylikni harakatlar orqali tasvir etadigan ijod turidir. Har bir millatning o'z milliy raqsi mavjud. Raqs musiqasi doira, urma sozlar, karnay-surnay, nog'ora, doira, yallalar yoki qarsak chalib turib ham bajarilishi mumkin. Musiqa va raqs hayotning barcha tamonlarini aks ettira oladi. Xalq ijodining durdonalari mehnatkash ommaning qobiliyatli tomonidan ijod etiladi og'izdan—og'izga ko'chib boshqalar ham bu asarni ijro qiladilar, uning boyib borishiga o'z hissalarini qo'shadilar, takomillashtiradilar, boshqa variantlarni yaratadilar.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz qatorida ko'p asrlik musiqiy merosimizga ham alohida e'tibor berila boshlandi. Endilikda xalqimizning ajoyib xilma-xil va bir-biridan go'zal mahalliy musiqiy an'analaridan, mumtoz musiqaning yuksak durdonalaridan, maqom san'ati hamda uning raqssona harakatlarni o'qitilish va undan ma'naviy zavq olish, ruhiy bahramand bo'lish imkoniga ega bo'ldilar.

Demak, musiqa rahbari yangi qirralarini ochib beruvchi, ham muallim, ham rejessyor, ham artist, ham yangi asar muallifi bo'lmog'i kerak. O'qituvchisi o'z kasbini chin dildan sevib, barcha tadbirlarda faol bo'lishi, ushbu badiiy-

musiqiy tadbirlarga o`quvchi-talabalarni jalb etishi barcha fanlarni samarali o`zlashtirishga yordam beradi.

Musika rahbari yangi pedagogik texnologiya asosida mashg`ulotlarni olib borishi, o`quv muassasalarida sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishi kabi tadbirlar vositasida yosh avlodni axloqiy tarbiyasini shakllantirish masalasiga yaqindan yordam beradi.

Milliy musika ta`limining asosiy maqsadi yosh avlodni milliy musika me`rosimizga vorislik qiladigan, bilimli, sog`lom yoshlarni tarbiyalash va ularni Ona-Vatanga bo`lgan mehru muhabbatini oshirishdan iborat. Shu bilan birgalikda har bir o`quvchining musiqiy iqtidorini, san`atga bo`lgan ishtiyoqini oshirish musika ta`limining asosiy vazifasidir.

Musika o`qituvchisi o`z kasbiga va bolalarga mehr qo`ygan madaniyatli, keng dunyo qarashli, mohir ijrochi, musika san`atiga kasbiy qiziqishda bo`luvchi, kishilar bilan ishlay oladigan, yaxshi tashkilotchi, san`atning hamma turlari, ularning umumiy ta`rifi va tarixi bilan tanish bo`lishi, xalq ta`limi sohasida musiqiy cholg`u asbobi, dirijyorlik, musika tarixi, qo`shiq kuylash, retmik hamda raqssona harakatlar bajarish sirlari haqida tishunchaga ega bo`lish bugungi kun talablaridan biridir. Musika san`atini rivojlantirish borasida sinf-sinfdan tashqari musiqiy

tadbirlarning ommaviy va tugarak formalari mavjud bo'lib ularni uyushtirish va o'tkazib turish har bir musiqa rahbarining burchidir.

Xozirgi zamon musiqa o'qituvchisi pedagogik muloqat ustasi bo'lishi, har qanday vaziyatda ham pedagogik ta'sir usullaridan unumli foydalanish qobiliyatga ega bo'lmog'i lozim. O'quvchi yoki talaba o'z istagiga binoan o'zi yoqtirgan qo'shiq yoki raqsni tanlab ijro yo'lini o'rganib kelishi va kelgusi mashg'ulotda o'quvchilarga o'rgatishi mumkin.

Musiqa–tili umumbashariyat tildir, Musiqa kishini yangi bir olamga eltadi, xayotni yangi jilolarda kursatib, ezgu xis - tuygular uyg'otadi va kishini ijodiy mehnatga chorlaydi. Musiqa ohanglari bizga olam-olam ruxiy oziq berish bilan birga aqliy rivojimizga har tomonlama barkamol inson bulishimizga katta yordam beradi.

O'rta Osiyoning madaniyat markazi bo'lgan Buxoro va Samarqandda o'zbek musiqa san'atining xususiyatlari deyarli boshqachadir. Buxora va Samarqand mahalliy uslubi xususiyatlarining muhum farqi musiqa merosi va ijrochilikning ikki turga-og'zaki an'anadagi professional san'at va folklorga bo'linishidadir.

Buxora va Samarqand viloyatidagi o'zbek musiqa folk'lori esa ko'p jihatdan tojik musiqasi bilan ma'lum darajada

umumiylikka ega bo'lib tarixiy taqdiri deyarli o'xshash bo'lgan har ikkala qardosh xalq o'zbeklar va tojiklarning babbaravar darajadagi musiqa merosidir. "Shashmaqom" bu fikrimizning dalili bo'la oladi. Olti maqomning har biri o'ziga xos tovush pardalariga ega bo'lib bu pardalar asosida bastakorlar cholg'u kuy, ashula va raqs san'ati yo'llarini yaratganlar.

Musiqaviy asarlarni tinglash va ijro etish jarayonida bolalarning yoshlari inobatga olingan holda rejalashtirish maqsadga muvofiqdir. Aksincha, bolalar yoshlariga mos bo'lmagan musiqiy asarlar bolani toliqtirishi mumkin. Musiqani kuylash va tinglash orqali ularda qandaydir raqssona kuch paydo bo'ladi. Raqssona kayfiyat hosil bo'lib, asarning xarakteriga moslashib oladi.

Musika rahbari ta'lim samaradorligini ta'minlashda, bolalarning musiqa mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishini o'stirishda etakchi omil bo'lib hisoblanadi. Demak, yangi dastur mazmunida mashg'ulot o'tish uchun, musiqa rahbari o'zining musiqiy-nazariy bilimlarini takomillashtirish lozim. Chunki, mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi nafosat tarbiyasi masalalarini, insonni ma'naviy, ma'rifatli qilib tarbiyalash masalalarini hal qilishda jamiyat va davlat tomonidan qo'yilgan katta ma'suliyatni oldiga vazifa qilib qo'ymoqda.

Qalbi go'zal odamning istarasi issiq bo'ladi. Qalbi go'zal odam chiroyli kuladi raqs gupurayotgan qalbning tashqi to'lqinidir. Azal-azaldan yuksak ma'naviyatli xalqimizning diltortar musiqalari-yu ularga monand raqslari bisyor. Ular asrlarki xalqimiz e'tiborida qalbimiz turida.

Raqs tushayotganda insonni yomon uy hayollar butkul tark etadi. Vujudini ajib bir hushnudlik qamrab oladi, lablari beixtiyor tabassum izmiga tushadi. Qoyilmaqom ijro etilgan raqsni tomosha qilganimizda rohatdan entikib ketamiz. Qalbimizga iliqlik ajabtovur jimirlash yoyiladi, bizning mana shunday raqslarimiz, raqqoslarimiz va raqqosalarimiz bor.

Mukarrama Turg'unboyeva, Yulduz Ismatova, Isoxor Oqilov Viloyat Oqilova va boshqalar. Ular ijro etgan raqslar asrlar davomida xalqimiz qalbidan o'rin olib kelgan.

Raqs san'ati ajdodlarimiz tomonidan rivojlangan, takomillashgan holatda bizgacha etib kelgan, biz ham bu kuhna va navqiron san'atimizni yanada yuksaltirib ajdodlarimizga etkazish burchlimiz. Shu ma'noda "O'zbekiston milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risidagi" farmon 1997 yil 8-yanvar kuni prezidentimiz tomonidan e'lon qilindi. Zero milliy raqs san'ati madaniyatimizning ajralmas bir qismi xalqimizning dunyoga ko'z-ko'z qilishga arzigulik o'lgan boyligidir.

Barcha xalqlarning milliy raqslari singari bizning o'zbek milliy raqslarimiz ham o'z jozibalari liboslari bilan ajralib turadi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng san'atning ko'pgina turlari qatori o'zbek milliy raqsiga ham prezidentimiz tomonidan alohida e'tiborga olindi, bu botada ko'pgina katta raqqosalarimizga usta beletmestrlarimizga bir qancha unvonlar berilganidan biz ham xursandmiz.

Mustaqilligimiz tufayli usta san'atkor Viloyat Oqilovaga "El-yurt xizmatida" degan unvon berildi. V.Oqilovaning sevimli shogirdlaridan Rozaxonimga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" sharaflı nom berildi. V.Oqilovaning shogirdlaridan Rushana Sultonovalar ham xizmat ko'rsatgan artist nomiga sazovor bo'ldilar.

Bularning hammasi juda katta mehnat, izlanish milliy raqslar turli raqslarni me'yyoriga etkazib ijro etish va tomoshabinlar qalbidan chqur joy olishlar tufaylidir. Bugungi kunda miliy raqslarimizni rivojlantirish uchun katta e'tobor berilmoqda. Bizning ham maqsadimiz ana shu milliy raqslarimizni yaxshilab o'rganib tanishib kelajak avlodlarimizga o'rgata olishdan iborat. Bolalar va kattalarga ham ertalabki retmik mashg'ulotlar ko'tarinki kayfiyat bag'ishlab, kun davomida hamroh bo'ladi. Shu bilan birgalikda bolaning sog'ligiga ham juda foydalidir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. I.A.Karimov. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. «O'zbekiston», Toshkent-1992 yil.
2. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. «O'zbekiston», Toshkent-1999 yil.
3. I.A. Karimov. Ma'naviy yuksalish yo'lida. «O'zbekiston», Toshkent-1997 yil.
4. I.A.Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asari Toshkent-2009 yil.
5. I.A Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. «O'zbekiston», Toshkent- 1999 yil.
6. I.A.Karimov. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma`ruza. 27.01 2010 yil
7. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent-1977 yil.
8. Barkamol avlod orzusi. Toshkent, "Sharq" nashriyoti matbaa konserni bosh tahririyati. 1999 yil.
9. Umumiy o'rta ta'limning davlat standarti va o'quv dasturi. "Sharq" nashriyoti matbaa – konserni. Toshkent-1999 yil. 6-max.son.
10. Imom al-Buxoriy. Al-adab, al-Mufrad (Adab durdonalari). «O'zbekiston», Toshkent-1990 yil.

11. Kaykovus. Qobusnoma. «Istiqlol», Toshkent-1994 yil.
12. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'atit turk. O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1-3tom, Tosh.-1950-1961yil.
13. I.A.Hayitmetov. Adabiy merosimiz ufqlari. O`qit.1997y.
14. D.Omonullaev "Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan ma'ruzalar kursi". Toshkent - 1990 yil.
15. Sharipova G.M. "Musiqa tarbiyasi metodikasi" T.-1997y.
16. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. «Yulduzcha», Toshkent-1990 yil.
17. Forobiy.
17. Fozil odamlar shahri. «O'zbekiston», Toshkent-1993 yil.
18. Abu Rayhon Beruniy. Tarvixalar. «O'zbekiston», Toshkent-1990 yil.
19. Abu All ibn Sino. Tibbiy risolalar. «Fan», Tosh.-1987 yil.
20. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent-1991 yil.
21. Umarov. Estetika. «O`zbekiston» Toshkent-1995 yil.
22. Temur tuzuklari. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlash-masi, Toshkent-1991 yil.
23. A.Alimuhamedov. Antik adabiyot tarixi. O'qituvchi, Toshkent-1975 yil.
24. N.Ibrohimov. Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati. «Fan», Toshkent-1993 yil.
25. T.Mahmudov. Go'zallik va hayot. Toshkent-1977 yil.

26. “Temuriylar davrida nafis kitob san'ati”. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent-1970 yil.
27. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. Toshkent-1995y.
28. H.Qudratullayev. Navoiyning adabiy estetik olami. Fan. Toshkent-1991y.
29. N.Sodiqova. Madaniy yodgorliklar xazinasasi.«Fan», Toshkent-1981y.
30. Z.Orinov Ustoz va olim «Rajabiyxonlik» ilmiy amaliy anjumoni materiallari-Toshkent 1994 yil 18 bet.
31. R.Tursunov. "An'anaviy qo'shiq ijrochiligi uslubiyoti" Toshkent-2003yil
32. L.Akbarov. " Musiqa lug'ati" Toshkent-1997yil.
33. R.Qosimov. " Rubob navolari" Toshkent-1993yil.
34. B.Qosimov “Bolalar bog`chasida o`zbek xalq milliy raqslari” Toshkent-2003yil.
35. M.Karimov, T.Usmonxo`jayev “Xoreografiya mashqlari, badiiy gimnastika va xalq harakatli o`yinlari”. Ilm ziyo nashriyoti. Toshkent-2005yil.
36. R.Karimova “O`zbek raqslari”.“Cho`lpon”nashriyoti. Toshkent-2003yil.
37. Ye.Konorova “Rimika”. “Cho`lpon” nashriyoti. Toshkent-2008yil.

38. O.T.Ashurova. “Musika o`qitishning innovatsion texnologiyalari” fanidan o`quv uslubiy majmua. Navoiy-2012y.
39. O.T.Ashurova. “Maktab repertuari va praktikum” fanidan o`quv uslubiy majmua. Navoiy-2012 yil.
40. O.T.Ashurova. “Bolalar musika adabiyoti” fanidan o`quv uslubiy majmua. Navoiy-2012 yil.
41. O.T.Ashurova. “Musika o`qitish nazariyasi va metodikasi” fanidan o`quv uslubiy majmua. Navoiy-2012 yil.
42. Ziyonet.